ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARI BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ VETERINARIYA HÁM SHARWASHÍLÍQTÍ RAWAJLANDÍRÍW KOMITETI

SAMARQAND MÁMLEKETLIK VETERINARIYA MEDICINASÍ, SHARWASHÍLÍQ HÁM BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ

VETERINARIYA MEDICINASÍ HÁM SHARWASHÍLÍQTAǴÍ AKTUAL MASHQALALAR HÁM OLARDÍŃ SHESHIMLERI

atamasındaǵı xalıq aralıq ilimiy hám ilimiy-texnikalıq konferenciya materiyalları TOPLAMÍ

15-noyabr 2024-jıl

"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari

TO‘PLAMI

15-noyabr 2024-yil

СБОРНИК материалов

международной научно и научно-технической конференции

"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"

15 ноября, 2024 г

NÓKIS-2024

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARI BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ VETERINARIYA HÁM SHARWASHÍLÍQTÍ RAWAJLANDÍRÍW KOMITETI

SAMARQAND MÁMLEKETLIK VETERINARIYA MEDICINASÍ, SHARWASHÍLÍQ HÁM BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ

VETERINARIYA MEDICINASÍ HÁM SHARWASHÍLÍQTAǴÍ AKTUAL MASHQALALAR HÁM OLARDÍŃ SHESHIMLERI

atamasındaǵı xalıq aralıq ilimiy hám ilimiy-texnikalıq konferenciya materiyalları TOPLAMÍ

15-noyabr 2024-jıl

"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari

TO‘PLAMI

15-noyabr 2024-yil

СБОРНИК материалов

международной научно и научно-технической конференции

"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"

15 ноября, 2024 г

NÓKIS-2024

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ЎСАДИГАН ДОНЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ

Турганбаев Р.У, Жолдасбаев Б.А., Ембергенова А.
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали

Аннотация. Ушбу мақолада бройлер жўжаларини озиқлантиришда қуланиладиган Қорақалпоғистонда ўсадиган донли ўсимлик кимёвий таркиби ва озуқа қийматини тадқиқ қилинди. Таъкидлаш жойизки оқсил миқдори донли ўсимликларда кўп эканлиги аниқланди.

Калит сўзлар. Бройлер жўжалари оқсил, ёғ, углевод, клечатка, кул, донли ўсимликлар ва ёғли ўсимликлар

Annotation. In this article, the chemical composition and nutritional value of cereal plants grown in Karakalpakstan, which are used as feed for broiler chickens, were studied. It is worth noting that it was found that the amount of protein, fiber and fat content is high in fatty plants, while the amount of carbohydrates is high in cereal plants.

Keywords. Poultry industry, protein, fat, carbohydrate, starch, ash,cereals and oilseeds

Кириш. Мамлакатимизда чорвачилик сохасини ривожлантиришда аҳолини сифатли гўшт, сут ҳамда бошқа озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш билан бирга фуқаролармизнинг бандлигини ошириш ва даромадларини кўпайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда аҳолини чорвачилик маҳсулотларига бўлган талабини ички бозордаги гўшт, сут, тухум ва бошқа маҳсулотлар билан қондириш, шунингдек ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш ва уларнинг нархлари барқарорлигини таъминлаш энг муҳим вазифалардан бири ҳисобланади [2].

Паррандачилик тармоғи, паррандаларни такрор ишлаб чикаришни таъминлаш, махсулот етиштириш бўйича шартнома топшириқларини бажариш ва табиий - иктисодий масалаларни хисобга олган хрлда тухум етиштириш, тухум-гўшт етиштириш ва наслдор паррандачилик йўналишлари бўйича ихтисослашган. Тухум етиштириш йўналишидаги паррандачилик фермалари товукчилик фермаларидагина ташкил этилади. Товуқ тухуми озиқ- овқат учун мазали, иктисодий самарадор, товуқ бокиш учун озиқа базаси қулай бўлган ҳудудларда кенг тарқалган.Тухум-гўшт етиштириш йўналишидаги фермалар асосан паррандачилик хўжаликларига хосдир. Мазкур йўналишдаги фермалар гўшт ва тухум етиштириб беради. Паррандачиликда наслчилик ишларининг асосий йўналиши инкубаторлар учун товар махсулот сифатида тухум ва инкубациядан ўрдак, гоз ва курка жўжалари чикаришдан иборатдир [3-4].

Бугунги кунда паррандачилик хўжаликлари қишлоқ хўжалиги бозорида юқори улушни эгаллаб турибди, бу паррандачиликдаги ўсишнинг юқори интенсивлиги ва ушбу сохадаги маблағларнинг тез айланиши билан боғлиқ. Айнан ушбу соха озиқлантиришни оптималлаштириш, ишлаб чиқариш жараёнини бошқаришни соддалаштириш ва ходимлар харажатларини минималлаштириш орқали махсулот таннархини пасайтиришнинг муқобил усулларини излашни талаб қиладиган соха хисобланади [5].

2023 йилнинг 1 январ ҳолатига Қорақалпоғистон Республикасида паррандалар 5196,9 минг бошга етди. 2020 ва 2021 йилларида паррандалар 4743,2 ва 5055,4 минг бошни ташкил етган еди. 2023 йилнинг 1 январ ҳолатига Узбекистанда паррандалар умумий сонидан 14,8 фоизи фермер хўжаликларига, 26,3 фоизи деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларига, 58,9 фоизи қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларга тўғри келади. 2017 йилнинг мос даври билан солиштирилганда (бу ракамлардин сони 11,5; 61,9 ва 26,6% тен еди) барча тоифадаги хўжаликларда паррандалар 20,0 млн бошга (28 фоизга) кўпайди.Тухум ва гўшт етиштириш хам йилдан йилга ўсиб келмоқда. Тухум етиштириш Қорақалпоғистонда 2022-йилга келиб 387 млн тани ташкил килди. Сўнги 10 йилликни хисобга олсак тухум етиштириш қарийиб 400 % ошган яни 96.8 млн дан 386.9 млн га етган. Гўшт етиштириш Қорақалпоғистонда 2017- йил энг юқори кўрсаткични эгаллади яни 8.9 минг т га етди. Кейинги йиллар яни 2019 йилга келиб гўшт етиштириш камайиб карийиб 2 бараварга қисқариб 4.1 минг т га тушиб кетди. Паррандалар сонининг йил сайин копайиб бораётгани емга бўлган ехтиёжни оширади, бу ехтиёж 2018йилда 20195 тоннани ташкил етди. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки 2018 йилда Ўзбекистонда давлат рўйхатидан ўтган атига 9 та корхона бор эди, ҳозирда уларнинг сони 32 тага етди. Аммо Қорақалпоғистонда эса парандалар учун озуқа ишлаб чиқарадиган корхоналар мавжуд емас [6].

Бугунг кунда етиштириладиган ресурслардан талаб қилиб олинадиган ассортиментдан сифатли озуқа ишлаб чиқариш, тухум ва гўшт йўналишидаги паррандаларнинг юқори маҳсулдор зотларининг генетик салохиятини рўёбга чиқаришнинг энг муҳим омилларидан бири ҳисобланади [7, 8].

Республикада озуқа ишлаб чиқаришни ривожлантириш учун паррандаларнинг турли ёш ва функционал тоифалари учун илмий асосланган озуқа стандартларини ишлаб чиқиш, иқлим шароити ва маҳаллий озуқа ресурсларини ҳисобга олган ҳолда озиқлантириш рационини ишлаб чиқиш зарур.

Паррандалар озуқасининг 80-85 % ни донли ўсимликлар ташкил қилиш эвазига унинг кимёвий таркибига катта этибор қаратилади. Шу сабабдан донли ўсимликларнинг умумий кимёвий (нимлик, оқсил, ёғ, клечатка, азотсиз моддалар, кул миқдори) таркиби тадқиқ қилинади. Статистик маълумотлар асосида Қорақалпоғистонда ўсадиган махаллий донли ўсимликлар (маккажохори, буғдой, оқ жохори, арпа, тариқ, шоли, кунгабоқар шроти) умумий кимёвий таркиби ўрганилди.

Хар бир донли ўсимликнинг 100ºС да намлик миқдорини ГОСТ 13496.4-93 ёрдамида аниқланади [9]. Хар бир намунани ГОСТ 26226-95 ёрдамида куйдириш печида 600-700º С да куйдириш орқали кул миқдори аниқланади [10]. Умумий оқсил миқдори ГОСТ 13496.4-93 ёрдамида Келдал усулидан фойдаланилади. Келдал усули умумий азотни аниқлайди ва азот миқдорига қараб умумий оқсил миқдори хисблаб топилади [11]. Умумий ёғдорлиги ГОСТ 13496.15-97 дан фойдаланиб иссиқ таъсирида экстракция қилиб аниқланади [12]. Умумий углевод миқдорини «ФЕНОЛ-СЕРНОКИСЛОТНЫЙ МЕТОД» ёрдамида умумий сахароза миқдорини аниқлаш ёрдамида аниқланади [13].

Маълумки, ҳайвоннинг ўсиш тезлиги овқатланиш ва рационнинг озуқавий моддалар билан тўйинганлик даражасига боғлиқ. Уй шароитида ишлатиладиган озуқалар тананинг биологик фаол моддаларга бўлган еҳтиёжини ҳар доим ҳам қондирмайди, шунинг учун жаҳон амалиётида турли хил биологик фаол қўшимчалар (озуқа қўшимчалари) кенг қўлланилади. Шу билан бирга, бозорда мавжуд бўлган озуқа қўшимчалари ва уларнинг бахоси юқори нархдан еканлигини билган ҳолда, озуқа қўшимчаларидан фойдаланиш самарадорлиги бизнинг мамлакатимизда ҳали яхши ўрганилмаган.

1-жадвал

Махаллий донли ўсимлиларнинг биокимёвий таркиби

Кўрсаткич номи	буғдой	Маккажўхори	Оқ жўхори	Арпа	Тариқ	Шоли
Қуруқ модда	86.00	86.00	84.7	86.0	85.4	86.0
Оқсил миқдори	11.8	10.3	11.9	10.3	4.14	7.5
Кул миқдори	1.7	1.2	2.9	2.4	2.1	3.9
Клечатка	3.9	2.2	11.3	5.6	10.24	9.7
Ёғдорлиги	2.2	4.9	4.6	2.4	1.57	2.6
Азотсиз моддалар	66.4	67.4	54	65.3	67.35	62.3
Калций мг/100г	54	34	46	93	62	40
Фосфор мг/100г	370	301	325	353	361	328
ЭА ккал/100г	304	365	329	288	298	303

Қорақалпоғистон ҳудудида ўсадиган донли ўсимликлар таркибидаги оқсил миқдори энг юқори қўрсаткич буғдойда (11.8%) энг кам миқдор тариқда (4.14%). ёғдорлиги энг юқориси маккажўхори 4.9% энг кам тариқда 1.57% эканлиги, клечатка миқдори эса оқ жўхорида 11.3% энг ками маккажўхорида 2.2% азотсиз моддалар миқдори эса энг юқори қўрсаткич маккажохорида 68.7% энг кам миқдор оқ жўхорида54% ни ташкил этиши аниқланди. Энергия алмашиниш қиймати энг юқори кўрсаткич маккажўхорига (365 ккал) тегишли ундан кейинги ўринларда, оқ жўхори (329

ккал), буғдой (304 ккал), шоли (303 ккал), тариқ (298 ккал), ва арпа (288 ккал) эгаллаб турибди.

Хулоса. Махаллий озуқабоп донли ўсимликларнинг кимёвий таркиби ва озуқа қийматини тадқиқ қилинди. Энергия алмашиниш қиймати бўйича энг юқори кўрсаткич буғдой (365) энг паст қиймат арпа (288 ккал) эканлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жўраев Фрунзе. Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш. Дарслик.Ўзбекистон журналистлар уюшмасининг «Истиқлол» нашриёти, 2004 й. –С 345.

2. Тошкулов А.Х. Чорвачилик маҳсулотлари етиштиришга ихтисослаштирилган қишлоқ хўжалиги корхоналарини солиққа тортиш ҳолати таҳлили (сурхондарё вилоятида фаолият кўрсатувчи қишлоқ хўжалиги корхоналари мисолида). “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021 yil

3. Мақсудов И., Жўраев Ж.Й., Амиров Ш.Қ. Чорвачилик асослари. Ўқувқўлланма. Тошкент 2012 й. –С 361

4. Саматов Ғ.А. ва бошкалар «Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш». (Маърузалар тўплами). Т. 2002.

5. Алексей Николаевич Пушкарь. Рекомендации по кормлению и содержанию кур-несушек. Корми и факти №1–2(65-66), січеньлютий 2016.

6. Қ.Ғ. Ҳажибаев, Г.Е. Бердимбетова, А.П. Курбанов, Б.А. Жолдасбаев. Паррандалар учун орол денгизи Artemia цистаси асосидаги озуқа қўшимчасига ега бўлган ноананавий турдаги озуқа яратиш. «Шарўашылықтағы актуал мәселелер шешимине инновацион қатнас» атамасындағы Республикалық илимий ҳәм илимий техник конференция материаллары топламы. 27-октябр 2022-жыл. –С 219-222

7. Пономаренко Ю.А. Фисинин В.И. Егоров И.А. Безопасность кормов, кормовых добавок и продуктов питания: Монография. Министерство сельского хозяйства и продовольствия Республики Беларусь, Российская академия сельскохозяйственных наук. – Минск: Экоперспектива, 2012. –С 864.

8. Пономаренко Ю.А. Фисинин В.И. Егоров И.А. Корма, биологически активные вещества, безопасность: Монография. Российская академия сельскохозяйственных наук, Национальная академия наук Беларуси. – Минск ; Москва : Белстан, 2013. –С. 872.

9. ГОСТ 13496.4-93 Корма, комбикорма, комбикормовое сырье. Москва Стамдартинф орм 2017

10. ГОСТ 26226-95. Межгосударственный стандарт. Методы определения сырой золы.

11. ГОСТ 13496.4-93 Корма, комбикорма, комбикормовое сырье. Методы определения содержания азота и сырого протеина.

12. ГОСТ 13496.15-97. Методы определения содержания сырого жира.

13. Dubois M., Gilles K.A., Hamilton J., Robers P.A., Smith F. Colorimetrik method for determination of sugars and reiated substances// Analyt. Chem. 1956.V.28.P.350-356.

ZAMONAVIY BIOTEXNOLOGIYA USULARIDAN FOYDALANIB SOMONGA FERMENTLAR TA'SIRIDA OZUQA TAYORLASH

Allanazarov B.J.[1], Yuldashev D.[1], Satbaev A.[1], Maqsatova L.[1], Masharipov I.G.[2]
[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Nukus filiali
[2]Urganch davlat universiteti

Kirish. Zamonaviy biotexnologiyaning yo'nalishlaridan biri- mikroorganizmlarni o'stirish asosida ferment preparatlari ishlab chiqarishdir. Chunki ular qishloq xo'jaligida hayvonlarga oziqalar tayyorlashda, oziqalarga qo'shimchalar sifatida va hayvonlarni ba'zi-bir xastaliklardan davolashda ham ishlatilishi mumkin (oshqozon-ichak va parazitar kasalliklarni oldini olish va davolash maqsadida fermentlardan foydalaniladi). Qishloq xo'jalik hayvonlari oziqasini asosi o'simlik mahsulotlari, (don, silos, hashak, somon va h.k) juda ko'p miqdorda qiyin hazm bo'ladigan moddalar – klechatka, lignin, gemitsellyuloza saqlaydilar. Hatto kavsh qaytaruvchi hayvonlarni oshqozon oldi qismida faol sellyuloza parchalaydigan mikroorganizmlar to'plangan bo'lishiga qaramasdan, klechatkani 40-65% parchalanadi xolos. O'simlik oqsillari ham to'lig'icha parchalanmaydi (60-80%), lipidlar (60-70%), kraxmal va polifruktozidlar (70-80%), pektin moddalar ham kam miqdorda parchalanadilar, xolos.

Natiyjalar va ularning taxlili. O'simliklardan tayyorlangan oziqani organizmda so'rilishini va ishlatish samaradorligini oshirish maqsadida, qishloq xo'jalik hayvonlari oziqa ratsionlariga 0,1-1,5% hisobidan mikroorganizmlardan olingan gidrolitik fermentlar preparatlari aralashtirib ishlatiladi. Mikrob ferment preparatlari odatda bakteriyalardan yoki mikroskopik zamburug'lardan olinadi. Bakteriyalarni ba'zi bir turlari (masalan, Bac.subtillis) gidrolitik fermentlarni oziqa muhitiga chiqaradilar (sekresiya), shuning uchun ham ularni fermentlarini kultural suyuqlikni quyultirish va maxsus uskunalarda quritish orqali tayyorlanadi Agar ferment manbai bo'lib mikroskopik zamburug'lar (Aspergillus, Trichoderma, Fusarium) hizmat qilsa, ularni quruq oziqa muhitida yuzaki ekilib, ferment preparatlari o'sib chiqqan mikroorganizmni yig'ib olib quritish orqali tayyorlanadi. Tozalangan fermentlar esa mikroorganizmlar hujayralaridan ekstraksiya qilib olish va etanol yoki boshqa organik erituvchilar (izopropanol, aseton va h.k.) yordamida cho'ktirib, quritish orqali tayyorlanadi. Yirik shoxli hayvonlarning oziqa ratsionida ko'proq kletchatka, pentozanlar, pektin moddalariga boy bo'lgan mahsulotlar ishlatiladi. Ular mollarni xalqumidagi mikroorganizmlar yordamida sekin parchalanadilar va boshqa oziqa moddalarini organizmga so'rilishini pasaytiradilar. Bu moddalarni so'rilishi oziqa ratsioniga tegishli ferment preparatlarini qo'shib ishlatilganda tezlashadi.